TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY VA TAHLILIY TOPSHIRIQLARNING O‘RNI

Умарова Нигора Зайнитдиновна
Тошкент давлат техника университети кафедра мудири, п.ф.н., доцент

Annotatsiya

Mustaqil ta’limni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularning intellektual va kasbiy salohiyatini rivojlantirish masalalari maqolamda tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro ta’lim tajribasi asosida ijodiy loyihalar, muammoli vaziyatlar, ilmiy izlanishlar, keys-stadi va tahliliy topshiriqlarning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, ijodiy topshiriqlar, tahliliy topshiriqlar, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur.*

Аннотация

В статье анализируются современные подходы к организации самостоятельного обучения, формированию навыков самостоятельной работы студентов в условиях кредитно-модульной системы, а также развитию их интеллектуального и профессионального потенциала. На основе международного образовательного опыта раскрываются возможности использования творческих проектов, проблемных ситуаций, научно-исследовательской деятельности, кейс-стади и аналитических заданий в образовательном процессе.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, творческие задания, аналитические задания, самостоятельное мышление, критическое мышление.*

Abstract

The article analyzes modern approaches to organizing independent learning, developing students’ self-study skills within the credit-module system, and enhancing their intellectual and professional potential. Drawing on international educational practices, it explores the potential of creative projects, problem-solving situations, research activities, case studies, and analytical assignments in the educational process.

Keywords: *independent learning, creative assignments, analytical assignments, independent thinking, critical thinking.*

Kirish

Zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki mustaqil izlanish, axborotlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish va o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish qobiliyatiga ega bo‘lishni ham talab qilmoqda. Shu jihatdan talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish oliy ta’lim sifatini oshirishning muhim pedagogik yo‘nalishi hisoblanadi.[2;1] Jahon oliy ta’lim amaliyotida mustaqil ta’lim talabaning shaxsiy faolligi va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan holda tashkil etilmoqda. Bunda o‘qituvchi bilimlarni tayyor shaklda yetkazuvchi emas, balki talabaning izlanish faoliyatini yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va o‘quv natijalarini baholovchi pedagog sifatida ishtirok etadi.[4;5] AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar ta’lim tizimida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, loyiha ishlari va muammoli topshiriqlardan foydalanish muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham kredit-modul tizimining joriy etilishi talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatiga bo‘lgan talabni kuchaytirdiShu sababli mazkur topshiriqlarning mustaqil ta’lim jarayonidagi o‘rni va pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.[6;3]

Adabiyotlar sharhi

Mustaqil ta’limning nazariy asoslarini o‘rganishda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya tushunchalarining mazmuni alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida bilim insonning borliq, tabiat va jamiyat hodisalari to‘g‘risida shakllantirgan tushunchalari hamda ma’lumotlari tizimi sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, ta’lim jarayonida bilimning haqiqiy samarasi uning amaliy faoliyatda qo‘llanilishi va mustaqil fikrlash orqali rivojlantirilishi bilan belgilanadi [3; 4; 5]. Sh. Avazov, N. Muslimov, Sh. Qosimov va boshqa mualliflarning kasbiy ta’lim usullari va texnologiyalariga bag‘ishlangan metodik qo‘llanmasida ta’lim jarayonini amaliy yo‘nalishda tashkil etish, o‘quv faoliyatini samarali metodlar asosida shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan [2]. Ushbu qarashlar mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishda ham muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Sh. Qosimovning kasbiy ta’limni tashkil etishning metodik asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotida bilim, ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari o‘rganilgan [6]. A.R. Xo‘jaboev va Sh. Qosimov tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmada esa amaliy ta’limni tashkil etish va o‘quv faoliyatini metodik jihatdan ta’minlash masalalari yoritilgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida mavzuga aloqador ilmiy-metodik adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar va pedagogik manbalar o‘rganilib, ulardagi asosiy tushunchalar va ilmiy qarashlar mazmunan tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil metodi orqali xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida mustaqil

faoliyatni tashkil etish tajribasi O‘zbekiston oliy ta’limidagi mavjud yondashuvlar bilan solishtirildi. Umumlashtirish metodi yordamida ijodiy va tahliliy topshiriqlarning pedagogik vazifalari, ularning talabalarning intellektual rivojlanishiga ta’sir etuvchi jihatlari tizimlashtirildi. Shuningdek, didaktik tahlil asosida topshiriqlarning mazmuni, bajarish shartlari, murakkablik darajasi va baholash mezonlariga qo‘yiladigan talablar belgilandi. [6;7]Tadqiqotda ijodiy va tahliliy topshiriqlar bir-birini to‘ldiruvchi ta’lim vositalari sifatida qaraldi. Chunki ijodiy faoliyat yangi fikr va g‘oyalarni shakllantirishga xizmat qilsa, tahliliy faoliyat ularni dalillar asosida tekshirish, taqqoslash va baholash imkonini beradi. Ushbu metodologik yondashuv mustaqil ta’limni faqat o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayoni emas, balki talabaning intellektual, shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi yaxlit pedagogik faoliyat sifatida o‘rganishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar

Oliy ta’limda mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish jarayonida topshiriqlarning mazmuni va metodik jihatdan to‘g‘ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Talabaga faqat nazariy ma’lumotlarni o‘qish, yodlash yoki qayta bayon qilishga asoslangan vazifalarni berish uning ijodiy va tahliliy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga yetarli sharoit yaratmaydi. Shu sababli mustaqil ta’lim mazmunini talabaning izlanishi, fikrlashi, taqqoslashi va mustaqil xulosa chiqarishini talab qiladigan topshiriqlar bilan boyitish lozim. Ijodiy topshiriqlar talabalarda yangicha fikrlash, tashabbuskorlik, mustaqil g‘oya ishlab chiqish va mavjud muammolarga muqobil yechim topish qobiliyatlarini rivojlantiradi.[2;1] Bunday topshiriqlarga esse yozish, loyiha tayyorlash, taqdimot yaratish, muammoli vaziyatga yechim taklif etish va muayyan mavzu yuzasidan mustaqil tadqiqot olib borish kiradi. Tahliliy topshiriqlar esa talabalarning turli axborot manbalarini o‘rganish, ma’lumotlarni saralash, o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish hamda asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, ilmiy maqolalarni tahlil qilish, nazariy qarashlarni taqqoslash, muammoli savollarga yozma javob tayyorlash va tahliliy jadvallar tuzish ushbu yo‘nalishdagi samarali topshiriqlar hisoblanadi. Ijodiy va tahliliy topshiriqlarning o‘zaro uyg‘unligi talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini yanada mazmunli tashkil etishga yordam beradi. Chunki yangi g‘oyani ishlab chiqish uchun avvalo mavjud bilimlarni o‘rganish, axborotlarni tahlil qilish va muammoning mohiyatini anglash talab etiladi. Shundan keyingina talaba o‘zining mustaqil taklifi yoki yechimini shakllantira oladi. Xalqaro ta’lim tajribasi ham mustaqil topshiriqlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashning ahamiyatini tasdiqlaydi. AQShdagi Technical, Junior Colleges va Community Colleges, Buyuk Britaniyadagi NVQ hamda GNVQ dasturlarida kasbiy tayyorgarlikning amaliy yo‘nalishiga e’tibor qaratilishi nazariya va amaliyot integratsiyasining muhimligini ko‘rsatadi.[5;1] Mazkur tajribalarni oliy ta’limdagi mustaqil ishlarni tashkil etishda hisobga

olish, talabalarga real muammolar asosida topshiriqlar berish va ularni mustaqil yechim ishlab chiqishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Mustaqil ta’limni tashkil etishda topshiriqlarning murakkablik darajasi ham bosqichma-bosqich oshirib borilishi zarur. Dastlab talabalar ma’lumotlarni izlash, saralash va umumlashtirishga o‘rgatiladi, keyingi bosqichda ularning taqqoslash, tahlil qilish va mustaqil munosabat bildirish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Yakuniy bosqichda esa kichik tadqiqotlar, ijodiy loyihalar va amaliy muammolarni mustaqil hal etishga yo‘naltirilgan vazifalardan foydalaniladi. Bunday izchillik talabalarning bilim olish jarayonidagi mas’uliyatini oshirish va mustaqil faoliyatga tayyorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi faoliyati, metodik ko‘rsatmalar va baholash mezonlarining aniqligi ham muhim hisoblanadi. Agar topshiriqlar aniq maqsadsiz yoki yetarli tushuntirishlarsiz berilsa, ular talaba uchun oddiy rasmiy vazifaga aylanib qolishi mumkin. Aksincha, maqsadli tashkil etilgan topshiriqlar talabaning o‘z ustida ishlashiga, mustaqil qaror qabul qilishiga va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Tadqiqot doirasidagi nazariy tahlillar asosida mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish uchun topshiriqlarni talabalarning individual imkoniyatlariga moslashtirish, ijodiy va tahliliy faoliyatni uyg‘unlashtirish, elektron resurslardan maqsadli foydalanish hamda baholashning shaffof mezonlarini belgilash zarurligi aniqlandi. [7;1]

Demak, mustaqil ta’limda ijodiy va tahliliy topshiriqlardan foydalanish talabaning faqat bilim darajasini oshirish bilan cheklanmay, uning mustaqil fikrlashi, tadqiqotchilik qobiliyati va kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ham rivojlantiradi. Umuman olganda, ijodiy va tahliliy topshiriqlar talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularni uzluksiz mustaqil ta’lim olishga tayyorlashda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Rasmiy nashr. -Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.

2. Avazov Sh., Muslimov N., Qosimov Sh., Xodiev U., Avazov E. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta’limning usullari va texnologiyalari (chizmalar, jadvallar va rasmlar asosida): metodik qo‘llanma. - Toshkent: Navro‘z, 2014. - 300 b.

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - 704 b.

4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - 704 b.

5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. - 704 b.

6. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta’limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -Toshkent, 2018. - 166 b.

7. Xo‘jaboev A.R., Qosimov Sh. Amaliy kasbiy ta’limni tashkil etish va o‘tkazish metodlari: kasb-hunar kollejlari maxsus fanlar o‘qituvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanma. - Toshkent: CSTO, 2007. -148 b.